



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Baratova Nasiba Turopovna¹

¹ Qashqadaryo viloyati PYaMO'MM

Pedagogika, psixologiya va ta'lif menejmenti kafedrasi katta o'qituvchisi

**BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHI FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH BUGUNKI KUN TALABI**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchi faoliyatini tashkil etish, O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlar va ularni egallash yo'llari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif jarayoni, boshlang'ich sinf o'qituvchisi, o'quvchilar, o'quvchilar ma'naviy-ruhiy olami, sinf jamoasi, o'qituvchilik kasbi, kasbga xos fazilatlar, pedagoglik odobi, talabchanlik, dilkashlik.

Bugungi davr har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan o'quvchisining ma'naviy-ruhiy olamini yaxshi bilishni, jismoniy rivojlanishi, salomatligiga befarq bo'lmaslikni, o'quvchining boshqalar bilan munosabatlarini o'rganishni talab etadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z faoliyatlari jarayonida o'quvchi savodini chiqarishi, ularning dunyoqarashi va ma'naviyatini rivojlantirishi, sinf jamoasini shakllantirish borasida tinmay mehnat qilishlari va har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'ra olishi darkor.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisiga, jumladan, sinf rahbari kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan biri – bolalarni sevishi, ularning hissiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni xurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi, buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashga safarbar qila oladigan pedagoggina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasida boshlang'ich sinf o'qituvchisi qiyofasi shunday ta'riflanadi: ...eng muhimi balalarda o'qish, o'rganishga chinakam havas, ishtivoq uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'ren tutadi va yana shu konsepsiya boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga quyidagi qo'shimcha talablar ham keltiriladi. O'qituvchi: ...O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo'lishi;

- bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi;
- nutqiy ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi zarur.

O'qituvchilik kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan biri – bu undagi **pedagoglik odobidir**. Pedagoglik odobi har bir o'qituvchining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining savotli bo'lishiga, o'z xissiyotini idora eta olishiga, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yorlarni belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lган sinf rahbarigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnata oladi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra o'qituvchi **tashkilotchilik** fazilatiga ham ega bo'lmos'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lib har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmos'i zarur. Tashabbuskor o'qituvchi bolalarni o'z orqasidan ergashtira oladi, har bir ishni chin dildan bajaradi, qay bir ishga qo'l urmasin natijasi samarali bo'ladi.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligi ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lishi kerak. U uzoq vaqt tik oyoqda tura olishi, ko'p yurishi, epchillik kabi fazilatlarga ham ega bo'lmos'i muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: ... mutaxassis o'z faoliyatini sohasidagi qat'iy nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobiliyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo'jalik ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak.

Ushbu fikrlar o'qituvchilarga ham ya'ni mohir boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham bevosita taalluqlidir. Chunki jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o'qituvchilarni nafaqat kasbiy bilimlarini, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlaridan ham xabardor bo'lishini taqozo qilmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinf rahbarlarining xizmati katta.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quv-tarbiya jarayonning tashkilotchisi sifatida pedagogik mahoratni puxta egallagan, o'zida yuksak insoniy fazilatlarni namoyon eta oladigan ustoz bo'lishi kerak. U bolalarni sevishi, sabr-qanoatli, kasbiy bilimlarni puxta egallagan, muomala mahoratiga ega, o'z ustida tinmay mehnat qiladigan, tashabbuskor, fidoiy inson bo'lmos'i darkor. Ayniqsa, o'z ishiga sidqidildan yondoshmoqlik har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan talab etiladigan xususyatdir. Chunki, uning mas'uliyatli lavozimi o'zida bir emas, balki ko'plab ixtisosni birlashtiradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars olib borishi, o'quv-tarbiya va xo'jalik ishlarini yurituvchi, **talabchan** bo'lishi hamda o'quvchilarning dilkash murabbiysi bo'lishi kerak.

Bunday ko‘p qirrali fazilatni tarbiyalashga hech qanday o‘quv yurti qodir emas. Har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi sinf rahbari hisoblanadi, rahbarlik fazilati hayotning o‘zida, maktabdagi ish amaliyotida shakllanib boradi.

Bizningcha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridagi dadil, tashabbuskor, bilimdon, madaniyatli, halol va va’dasiga vafodor bo‘lishi kerak. Bunday o‘qituvchi har qanday vaziyat va sharoitga to‘g‘ri yondosha oladi, voqealarga va turmush hodisalariga dadil, odil baho beradi, haqiqiy talab va adolatli ish uslubini vujudga keltira oladi, mehribon inson sifatida katta mavqega ega bo‘la bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogga qo‘yiladigan zamon talablari majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog‘liq bo‘lgan talablarning majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq o‘qituvchiga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim berish mahorati;
2. Tarbiyalay olish mahorati;
3. O‘quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta’minlovchi shaxsiy fazilatlari;
4. Ta’lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati va h.k..

Demak, bizningcha ushbu model boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ham tegishli hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi uchun ta’lim darajasini oshiruvchi omillardan biri bo‘lib ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga jadal sur’atlar bilan kirib borish jarayoni hisoblanadi. Bu birinchi navbatda, bozor munosabatlarining rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, u jarayon bilim darajasiga, iqtisodiyot va ekologiya (atrof-muhit), kompyuter texnikasi va ilmbardosh texnologiyalar ustuvor bo‘lgan va xalq xo‘jaligining rivojlangan tarmoqlariga, ta’lim tizimining takomillashuvi va kadrlar tayyorlashga bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiga qo‘yiladigan hozirgi talab esa birinchi navbatda, axborot texnologiyalaridan foydalanishni mukammal egallagan, chet tilida gaplasha oladigan va albatta umumkasbiy fanlarni puxta o‘zlashtirgan va shunga o‘xshash boshqa fanlarning bilim asoslarini chuqr biladigan professional malakaga ega bo‘lgan har tomonlama chuqr bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlarning tayyorlanishi bilan belgilanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, asosan, quyidagilarga bog‘liq bo‘lar ekan:

- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning o‘zaro aloqadorligiga;
- ta’lim tizimini foyda keltiruvchi iqtisodiy tarmoqka aylantirishga;
- ta’lim muassasalarini zamонавиy o‘quv-metodik adabiyotlar bilan ta’minalash va ularning moddiy-texnik asosini yaratishga;
- ta’lim tizimiga eng yuqori malakali, intellektual salohiyatli o‘qituvchilarni jalb etishga;
- o‘quv jarayonini kompyuterlashtirishga;
- kadrlarni tayyorlashning sifatini oshirishga;
- o‘qituvchilarni darajada moddiy rag‘batlantirish va ularni ijtimoiy himoyalab turishga.

Bugungi kun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi har tomonlama rivojlangan yuqori darajadagi salohiyatga ega bo‘lgan, fan asoslarini chuqr o‘rgangan, bilimdon, zukko, dono, fidoiy, ma’rifatli va ma’naviyatli inson bo‘lishi kerak.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi yuqori madaniyatli, xalqimiz tarixini chuqr biladigan va uning kelajagi uchun jon kuydiradigan insonparvar va oliyjanob kishi bo‘lishi kerak.

Boshlang‘ich ta’lim ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta’kidlash lozim.

Shunday ekan, o‘qituvchilik- katta san’atdir, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining mas’uliyati juda kattadir. Bu san’atga u yoki bu pedagog osongina, o‘z-o‘zidan erisha olmaydi. Shuning uchun, o‘qituvchilik kasbiga, ya’ni sog‘lom avlod uchun chinakam murabbiy bo‘lishga havasi, ishtiyooqi zo‘r, zamon talablarini tez va chuqr tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g‘oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilarga erisha oladilar.

Ta’lim va tarbiya jarayoni ta’sirchanligining yanada yuksak bo‘lishi o‘qituvchining salohiyatiga, yoshlari oldidagi obro‘siga, shaxsiy sifatlariga, ilmiy iste’dodiga, ta’lim sohasidagi tajriba va mahorati hamda o‘quvchilar bilan o‘rnatilgan do‘stona munosabatiga bog‘liqdir.

Zamon talablari o‘qituvchilarning o‘zlarida mavjud bo‘lgan bilim va saviya bilan cheklanib qolmasdan, xorijiy mamlakatlar tajribasini qunt va sabot bilan o‘rganib, mag‘zini chaqib, undan keyin o‘z o‘quvchilariga saboq berishlari zarurligini taqozo etadi.

Pedagogik faoliyat samarasi o‘qituvchining pedagogik qobiliyati qay darajada shakllanganligiga ham bog‘liqdir. Qobiliyat-faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi, deb ta’kidlanadi. Jumladan, bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, nutq qobiliyati, obro‘ orttira olish qobiliyati, muomala qila bilish qobiliyati kabilar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat o‘qituvchida osonlik bilan shakllanmaydi. Bu kasbni tanlagan kishi o‘z maqsadiga erishish uchun uzluksiz o‘qishi, o‘rganishi va izlanishi, ijodiy mehnat qilishi, o‘z yurti va dunyodagi real voqelikni tez anglashi va o‘z mehnatining mamlakat uchun qanchalik zarurligini chuqr his qilishi zarur.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida dars va boshqa turdag'i barcha o‘quv mashg‘ulotlariga mas’uliyat bilan yondoshish, uni mukammal tashkil qilish-boshlang‘ich sinf o‘qituvchining birinchi navbatdagi vazifasidir. Yuqori saviyada tashkil qilingan darslar o‘quvchi ongida uzoq saqlanadi, ularda imon-e’tiqod va mafkuraning shakllanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘qituvchining ilmiy saviyasi uning o‘z burchiga munosabati, o‘quvchilarga murabbiylit ishtiyooqi, pedagogik mahorati va, eng avvalo, sifatlari dars bera olishida ko‘rinadi. Fan o‘qituvchisining faoliyatiga beriladigan baho darajasini ham dars va boshqa turdag'i mashg‘ulotlarning sifati belgilaydi.

Dars berish san’atini mukammal egallagan o‘qituvchi uyushtirgan o‘quv mashg‘uloti chuqr bilim berish vositali bo‘lishi bilan birga mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi, ertangi kunga bo‘lgan ishonchi, xalqimizning aql-zakovati va mehnatining nimalarga qodirligi,

jamiyatning munosib fuqarosi va sodiq quruvchisi bo‘lish uchun nimalar qilish zarurligini ko‘rsatuvchi ko‘zgu bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi, avvalo, o‘zi o‘qitadigan fanlarni va uni o‘qitishning zamonaviy metod va usullarini mukammal o‘zlashtirib olishi, o‘qituvchiga xos madaniyatni namoyon eta bilishi, ularni ijtimoiy faoliyatga tayyorlashi, o‘zining hiss tuyg‘ularini boshqara olishi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish madaniyati bo‘yicha ibrat bo‘lishi, nutq madaniyatini shakllangan bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Tolipov O‘.Q., M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: «Fan», 2006, 144 – 174-betlar.
2. Choriyev A.Ch., Choriyev I.A. Pedagogikaning metodologik asosi va ilmiy tadqiqot metodlari. Monografiya. Toshkent “Nishon noshir” nashriyoti, 2016 y. 248 b.
3. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha O‘UM. Tuzuvchilar M.Usonboyeva, A.To‘rayev TDPU, 2016 y. 18-24-betlar.
4. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat –T.: 2006, 62-70-betlar.